

“TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA’MURIY-HUDUDIIY
TUZILISHI VA BOSHQARUV TIZIMI: TARIX VA TAHLIL”

Abduraxmonov Adxamjon Soxodulla o`g`li.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston general-gubernatorligining ma`muriy-hududiy tuzulishi va hududiy boshqaruvi tahlil etilgan.

Kalit so`zlar. Turkiston, ma`muriy, viloyat, uyezd, okrug, A.B.Vrevskiy, F.K.Girs, Farg`ona, Zarafshon, Yettisuv.

O`rta Osiyoni bosib olingan hududlarida o`z hukmronligini saqlab qolish va uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa xisoblagani uchun ham boshqaruv sohasida dastlab katta o`zgarishlarni amalga oshirmagan. Shunday bo`lsada yuqori davlat organlari o`z nazoratlariga olib quyi organlarni nazorat qilishgan.

Rossiya imperiyasi o`lkani istilo qilgandan keyin mahalliy xalqlarni mustamlaka istibdodiga soluvchi qonun “Turkiston O`lkasini boshqarish haqidagi Nizom” ni joriy qilgan. Bu qonunga ko`ra mahalliy aholi siyosiy huquqlaridan mahrum etilgan. Chunonchi, ularning vakillari oliy va o`rta lavozimlarga yaqinlashtirilmay, hokimiyat tamomila rus harbiylari va amaldorlari qo`lida to`plangan. Podsho Rossiyasi Turkiston o`lkasini bosib olgach, jahonning eng yirik mustamlakachi davlatiga aylangan. Yevropa va Osiyoning bir qismini o`z ichiga olgan bu imperiya boshqa mustamlakachi davlatlardan farqli ravishda o`ziga xos mustamlakachilik tizimini yuzaga keltirdi. Bunday zo`ravonlik va zulmga asoslangan mustamlakachilik tizimi Turkistonda keng ko`lamda amalga oshirila boshlandi. Bu siyosat mahalliy xalqlarga mutlaqo ishonmaslik, ularni nazarga qilmaslik kabi o`ta millatchilik ruhidagi siyosat asosiga qurilgan edi. Rossiya imperiyasi bosib olingan hududlarda o`z hukmronligini o`rnatish va boshqarish uchun mustamlakachilarning manfaatlarini himoya qiladigan mustahkam boshqaruv tartiblarini joriy etish uchun barcha chora-tadbirlarni ko`rgan. Chunki, boshqaruv tizimi Rossiya hukumati uchun juda muhim bo`lib, bosib olingan joylarda mustamlakachilik siyosatini olib borishda asosiy tayanch hisoblangan.

Rossiya hukumatining Turkiston o`lkasi uchun 1865 – 1916-yillar oralig`ida ishlab chiqqan hamda amalga tadbiiq etilgan o`nta qonun loyihalari (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916-yillar)da va ularning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o`zgarishlarda ana shu holat o`z aksini topgan. Bu qonunning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o`zgarishlarda Turkistonni boshqaruvidagi harbiy-mirshablik ruhi aniq o`z ifodasini topgan. Yuqoridagilarni isboti sifatida Rus zodagonlaridan biri A.B.Vrevskiy “Turkiston xalqlari o`zlarini boshqaruvchi va sud qiluvchi yagona hokimiyatga o`rgangan”, deb o`lkada qattiqo`l mustabid idora zarurligiga ishora qilgan. Shuni ham ta`kidlab o`tish kerakki Rossiya imperiyasi mustamlaka tizimini dastlabki yillarida ilgarigi boshqaruvga ham tayanib ish ko`rgan

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo`yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida “harbiy vaziyat” omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`ldi. Ular yangi hududlar bosib olinishi bilan, yuzaga kelgan va qoida tarzida “muvaqqat” xususiyatga ega edi. Chunonchi, “Sirdaryo

va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to'g'risidagi nizom" 1867-yili "tajriba tarzida uch yilga" joriy qilindi. Bu Nizomda soliq tizimini izga solish maqsadida xo'jalik boshqarmalarini tuzish belgilab qo'yilgan edi. Undan tashqari, 1868-yilning iyunida "Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari", "Farg'ona viloyatini boshqarish bo'yicha 1873-yil muvaqqat nizom", "Amudaryo bo'limini boshqarish bo'yicha 1874-yil 21-may Nizomi" ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi. bo'lsada, yo'limizda uchragan barcha shahar va qal'alarni kuch bilan olishimizga to'g'ri keldi".

Turli vaqtinchalik nizomlarning mavjudligi va yagona normativ hujjatning yo'qligi boshqaruvda ma'lum bir qiyinchiliklarga olib kelar edi. Ushbu holatni bartaraf etish choralari metropoliya tomonidan turli tadbirlar, xususan, taftishlar orqali amalga oshiriladi. 1882-yil o'lkada taftish ishlarini olib borgan F.K.Girs o'z hisobotida: "Harbiy-xalq boshqaruvi, o'z davrini yashab bo'lgan va o'lkaning hozirgi ehtiyojlariga javob bera olmayotganligi tufayli, mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda umumiy asosdagi boshqaruvni joriy qilish lozim", – deydi. Aynan F.K.Girsning taftish ishlari natijasiga ko'ra, 1886-yilga kelib o'lka ma'muriy tuzilishini o'rganish va isloh qilish boshlandi. Buning natijasida "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi. 1886-yilgi Nizom yuridik jihatdan uzoq vaqt aniq reglamentatsiyaga ega bo'lmagan turli vazirliklarning o'lkadagi muassasalari va Turkiston general-gubernatorligi munosabatlarini rasmiylashtirar edi. Turkiston general-gubernatori qo'l ostidan sudlov, moliya, nazorat, o'quv va pochta-telegraf muassasalari chiqariladi. Viloyatlarda ularning bevosita vazirlik va o'lkadagi bo'limlarga bo'ysunadigan bo'linmalari paydo bo'ldi. Turkiston o'lkasi 1917-yili Rossiya imperiyasining halokatga yuz tutguniga qadar ushbu Nizom asosida boshqariladi. Turkiston general-gubernatorligi hududi esa kengligi jihatidan Fransiya, Germaniya va Avstro-Vengriya imperiyalari maydoniga teng bo'ldi. Turkiston general-gubernatorligi 1867-yil 11-iyul' (23-iyul)dan – 1917-yil 31-martgacha faoliyat yurutgan. Turkiston general-gubernatorligi dastlab ikki viloyatdan iborat bo'lgan. Maydoni 900 ming kv. km.dan oshiq edi. XIX asrning oxirlarida uning hududi 1.779.618 km² bo'lgan.

O'lkani boshqarishni yanada yengillashtirish maqsadida Turkiston general-gubernatorligi 1867 – 1886-yillarda viloyat va uyezdlariga bo'lingan edi. O'rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh joylarda uyezdlar o'rniga ularga mos ravishdagi harbiy-hududiy birliklar – okruglar, bo'limlar va rayonlar tashkil qilindi.

Dastlab Turkiston general-gubernatorligi ikki viloyat: markazi Toshkentda bo'lgan – Sirdaryo hamda markazi Verniy shahrida bo'lgan – Yettisuv viloyatiga bo'linardi. Keyinchalik, bosib olingan hududlar hisobiga qo'shimcha tarzda quyidagi ma'muriy-hududiy birliklar tashkil qilindi:

- 1868-yilda markazi Samarqandda bo'lgan Zarafshon okrugi;
- 1874-yilda markazi Petroaleksandrovska (To'rtko'l)da bo'lgan Amudaryo bo'limi;
- 1876-yilda Qo'qon xonligining tugatilishi hisobiga – markazi Yangi Marg'ilon (Farg'ona) shahrida bo'lgan Farg'ona viloyati.

Viloyatlar uyezdlariga, uyezdlar volostlarga bo'lib boshqarilgan. Viloyatlarni ham harbiy gubernatorlar boshqargan. Harbiy gubernatorlar bevosita podsho tomonidan tayinlanadigan bo'ldi.

Real turmush imperiyaning "taraqqiyot olib kirish" borasidagi rejalaridan ancha murakkab bo'lib chiqdi. O'n minglab kishilar imperiya agressiyasiga qarshi kurashga qo'zg'aldilar. Kaufman rus davlatining manfaatlarini bosqinchilarga qarshi yalpi qattiq kurash sharoitida joriy qilishga majbur bo'ldi. Podsho yorlig'i K.P. Kaufmanga "barcha siyosiy, chegara va savdo-sotiq ishlarini hal qilish,

qo'shni mamlakatlarda muzokara olib borish va traktatlarni imzolash, qarorlar uchun shartlarni kelishish" vakolatini berardi. U o'lkadan ayrim shaxslarni siyosiy sabablarga ko'ra besh yilgacha bo'lgan muddatga badarg'a qilish va qarshilik ko'rsatilgan taqdirda, ishni harbiy sudga oshirish huquqiga ega edi. Gubernator aholiga solinuvchi soliqlar miqdorini belgilar, ajnabiylarni rus fuqaroligiga qabul qilar, kreditlarni taqsimlar, shu jumladan, tub aholiga mansub bo'lgan shaxslarga o'lim jazosi berish haqidagi hukmlarni (agar ular qozilik va biylik sudlari tomonidan chiqarilgan bo'lsa) bekor qilish huquqiga ega edi. Rus hukumati o'ziga mustahkam tayanch barpo etish va hukumronligini mustahkamlash maqsadida rus shaharlari va qishloqlarini barpo etishga alohida ahamiyat berdi. Natijada Rossiyaning turli joylaridan Turkiston o'lkasiga ko'chib keluvchilar soni ortib bordi. XIX asrning oxiriga kelib o'lkadagi ruslar soni 197420 kishiga yetdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алимova Д. А. вабошқалар. Тарихшоҳидлигивасабоқлари: РоссияимпериясивасоветмустанлакачилигидавридаЎзбекистонмиллийбойликлариниўзлаштирилиши. –Т.: Шарқ, 2001.
2. АлимджановБ. ТаможеннаяиторговаяполитикаРоссийскойимпериииврусскомТуркестане // <https://naukarus.com/tamozhennaya-i-torgovaya-politika-rossiyskoy-imperii-v-russkom-turkestane>
3. БабабековХ. Н. НародныедвижениявКокандскомханствеииихсоциально–экономическиеиполитическиепредпосылки (XVIII – XIX вв.). –Т.: Фан, 1990. –118 с.
4. БабаходжаеваА. ЭкономическиеиполитическиепоследствияприоседенияСреднейАзиииРоссии. – Тошкент, 1966.
5. БрусинаО. И. БракиразводвнародныхсудахТуркестана: взаимодействиеадатаишариатаприроссийскомуправлении // Этнографическоеобозрение. – 2012. –№ 1. –С. 13-16.
10. Исраилова, М. Н. (2016). Новые педтехнологии изучения латинского языка в медицинских вузах. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (53), 66-71.
11. Исраилова, М. Н. (2017). Формирование принципов устойчивого развития в обучении иностранным языкам. *Международные научные исследования*, (1), 161-163.
12. Исраилова, М. Н. (2022, March). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ. In *Конференция состоялась* (Vol. 5, p. 414).
13. Israilova, M. N. (2017). New Pedagogical Technologies of Studying Latin in Medical Schools. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
14. Israilova, M. N., & Yuldasheva, D. Y. (2021). PECULIARITIES OF TEACHING LATIN LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES. *Eastern European Scientific Journal*, (2).

15. Исраилова, М. Н. (2021, November). ТЕХНОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 1, No. 2).

16. Исраилова, М. Н., Юлдашева, Д. Ю., & Сайфуллаева, Л. С. (2021). Педагогические технологии на занятиях по латинскому языку в медицинском вузе. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 47-49.

17. Исраилова, М. Н. (2019). Принципы преподавания латинского языка в медицинском вузе. *Academy*, (12 (51)), 58-60.

18. Исраилова, М. Н. (2022, August). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ: Исраилова Махсуда Нигматуллаевна, Доцент кафедры Латинского языка ТГСИ. In *Научно-практическая конференция*.

19. Исраилова, М. Н., & Сайфуллаева, Л. С. (2022, August). ТИББИЁТ ТАЪЛИМ МУАССАСИДА ЛОТИН ТИЛИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ-МАДАНИЙ РИВОЖЛАНИШ: Исраилова МН доцент PhD, Сайфуллаева ЛС ассистент Тошкент давлат стоматология институти Sayfullayevalola1@gmail.com. In *Научно-практическая конференция*.

20. Исраилова, М. Н. (2022, August). ЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ: Исраилова МН, доц. PhD Ташкентский Государственный Стоматологический Институт oydinboymatova80@gmail.com. In *Научно-практическая конференция*.

21. Исраилова, М. Н. (2018). ИННОВАЦИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ ПОСРЕДСТВОМ ВНЕДРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 68-69).

22. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Юлдашева, Д. Ю. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ДЛЯ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 422-425.

23. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Сайфуллаева, Л. С. (2022). ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 426-429.

24. Исмоилова, М. Н., & Кобилов, К. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 60-62.
25. Исраилова, М., Сайфуллаева, Л., & Дулдулова, Н. (2023). Lotin tilini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni. *Общество и инновации*, 4(2), 148-151.
26. Nig'matillayevna, I. M. (2022). BENEFITS OF USING VIDEO IN ELT. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 6, 7-12.
27. Nigmatullaevna, I. M. THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING MEDICAL LATIN. жери Контакттыктык, Ж. Кызыл-Кыя шаарынын участкалык шайлоо комиссияларынын сапаттык курамы. *Восток*, 14, 1.
28. Беляева, Н. Л. (2021). ШКОЛЬНАЯ СЛУЖБА ПРИМИРЕНИЯ КАК СОВРЕМЕННАЯ ФОРМА ПРОФИЛАКТИКИ. In *БЕЗОПАСНОЕ ДЕТСТВО КАК ПРАВОВОЙ И СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ КОНЦЕПТ* (pp. 27-30).
29. Sabirovich, R. M., Mahmudqulovich, I. Z., Mamirjon ogli, O. M., & Saydaliyevich, U. S. (2022). KONSTITUTSIYA-YOSHLARNI IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISH. *Scientific Impulse*, 1(4), 2010-2015.
30. Рузибаев, М. С., & Розмбаева, Ю. С. (2023). ДЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ-«ГЕРОЙ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ». *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1325-1329.
31. Рузибаев, М. С., & Розмбаева, Ю. С. (2023). ОТКРЫТЫЙ УРОК НА ТЕМУ:" СКАЗКИ ПУШКИНА". *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(1), 128-137.